

DAVRON ABDULLAYEV

ENGLISH TENSES IN COLOURS

Ingliz tilida mavjud fe'l zamonlarni ranglar yordamida o'rganamiz

Toshkent 2017

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanmada ingliz tilida mavjud fe'l zamonlarining yasalishi, ifodasi, shu jumladan, ingliz va o'zbek tillarida gap qurilishi o'rtasidagi farqlar ranglar yordamida tushuntirib berilgan.

Tuzuvchi: **Abdullayev Davron Ibadullayevich**
Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

Mas'ul muharrir: **Ermetova Jamila Ismoilovna**
Urganch davlat universiteti dosenti

Taqrizchilar: **G.Yu. Ho'janiyazova**
TATU Urganch filiali katta o'qituvchisi
Ermetova Jamila Ismoilovna
Urganch davlat universiteti dosenti

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma Urganch davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2017 yil 29 aprel № 6 ragamli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

KITOBIMIZDA QUYIDAGI RANGLAR IFODALAYDI:

yashil rang - ega

sariq rang - kesim

qizil rang - 2-darajali bo'laklar


jigar rang - yordamchi fe'l (*o'zbek tilida bunday fe'l turi mavjud emas*)

MUNDARIJA

1.	Ingliz tili zamonlari	5
2.	Ingliz va o'zbek tillarida gap qurilishi	6
3.	Ingliz va o'zbek tillarida bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning joylashuvi	7
4.	Ingliz tilidagi fe'l shakllari	8
5.	Ingliz tilidagi zamonlarning ifodasi	9
6.	Oddiy hozirgi zamon (Simple Present Tense)	12
7.	Hozirgi zamon davom fe'li (Present Continuous Tense) ...	14
8.	Tugallangan hozirgi zamon (Present Perfect Tense)	16
9.	Tugallangan hozirgi zamon davom fe'li (Present Perfect Continuous Tense)	18
10.	Oddiy o'tgan zamon (Simple Past Tense)	20
11.	O'tgan zamon davom fe'li (Past Continuous Tense)	22
12.	Tugallangan o'tgan zamon (Past Perfect Tense)	24
13.	Tugallangan o'tgan zamon davom fe'li (Past Perfect Continuous Tense)	26
14.	Oddiy kelasi zamon (Simple Future Tense)	28
15.	Kelasi zamon davom fe'li (Future Continuous Tense)	30
16.	Tugallangan kelasi zamon (Future Perfect Tense)	32
17.	Tugallangan kelasi zamon davom fe'li (Future Perfect Continuous Tense)	34
18.	Glossary of verb tenses	36

1. INGLIZ TILI FE'L ZAMONLARI

Quyida ingliz tilidagi mavjud fe'l zamonlari ko'rsatilib o'tilgan.



2. O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA GAP QURILISHI

O'zbek tilida gap bo'laklari asosan quyidagi ketmaketlikda joylashadi.

[**ega** + **2-darajali bo'laklar** + **kesim**]

Ingliz tilida gap bo'laklari asosan quyidagi ketmaketlikda joylashadi.

[**ega** + **kesim** + **2-darajali bo'laklar**]

O'zbek tilida kesim vazifasida turli so'z turkumlariga oid so'zlar qatnashishi mumkin. O'zbek tilida fe'l so'z turkumidagi so'zlar gapda doim qatnashishi shart emas.

Marjona talabadir. (*ot kesim vazifasida*)

Marjona ochdir. (*sifat kesim vazifasida*)

Marjona 32da. (*son kesim vazifasida*)

Marjona o'qimoqda. (*fe'l kesim vazifasida*)

Marjona pastda. (*ravish kesim vazifasida*)

Marjona har kun ishlaydi.

Ingliz tilida esa kesim tarkibida fe'l qatnashishi kerak. Ingliz tilida fe'lsiz gap bo'lmaydi. Ingliz tilida fe'l so'z turkumiga oid so'zlar gapning qaysi zamonda ekanligini ko'rsatuvchi yagona vositadir.

Marjona is a student.

Marjona is hungry.

Marjona is 32.

Marjona is reading.

Marjona is downstairs.

Marjona works every day.

3. O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA BOSH VA IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLARNING JOYLASHUVI

O'zbek tilida bosh va ikkinchi darajali bo'laklar asosan quyidagi tartibda joylashadi. Shunga qaramasdan o'zbek tilida ikkinchi darajali bo'laklarning joylashish tartibi turlicha bo'lishi mumkin.

[**ega** + **payt holi** + **o'rin joy holi** + **aniqlovchi** + **to'ldiruvchi** + **kesim**]

Marjona kechqurunlari uyida klassik musiqalar tinglaydi.

O'zbek tilida ikkinchi darajali bo'laklarning gapda turli holatdagi joylashuviga e'tibor bering.

Marjona klassik musiqalarni kechqurun uyida tinglaydi.

Marjona uyida kechqurun klassik musiqalarni tinglaydi.

Ingliz tilida esa bosh va ikkinchi darajali bo'laklar quyidagi ketmaktelikda joylashadi.

[**ega** + **kesim** + **aniqlovchi** + **to'ldiruvchi** + **o'rin joy holi** + **payt holi**]

Marjona listens to classical music at home in the evenings.

Ingliz va o'zbek tillarida bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning joylashuvini quyidagi misollarda ko'rib chiqing.

I wrote a letter to my brother yesterday.

Men kecha akamga maktub yozdim.

I will go to a bookshop to buy books tomorrow.

Men ertaga kitoblar sotib olish uchun kitob do'koniga boraman.





We wrote 3 scientific articles last year.

Biz o'tgan yili 3ta ilmiy maqola yozdik.

4. INGLIZ TILIDAGI FE'L SHAKLLARI

fe'l 1 fe'lning oddiy shakli	fe'l 2 fe'lning o'tgan zamon shakli	fe'l 3 fe'lning sifatdosh 2 shakli	fe'l 4 fe'lning sifatosh 1 shakli
be (am, is, are)	was/were	been	being
become	became	become	becoming
begin	began	begun	beginning
choose	chose	chosen	choosing
cut	cut	cut	cutting
do	did	done	doing
draw	drew	drown	drawing
eat	ate	eaten	eating
feel	felt	felt	feeling
find	found	found	finding
get	got	got	getting
grow	grew	grown	growing
have	had	had	having
hold	held	held	holding
keep	kept	kept	keeping
leave	left	left	leaving
lose	lost	lost	losing
make	made	made	making
pay	paid	paid	paying
put	put	put	putting
ring	rang	rung	ringing
say	said	said	saying
send	sent	sent	sending
show	showed	shown	showing
take	took	taken	taking
teach	taught	taught	teaching
tell	told	told	telling
think	thought	thought	thinking
win	won	won	winning
write	wrote	wrote	writing


5. INGLIZ TILIDA FE'L ZAMONLARNING IFODASI PRESENT TENSES –FE'LNING HOZIRGI ZAMON SHAKLLARI

Simple present tense – Oddiy hozirgi zamon	
Takrorlanuvchu, odat tusiga aylangan ish harakatlari va holatlari	
	 <p style="text-align: center;">Tom <i>studies</i> every day.</p>
Present continuous tense – Hozirgi zamon davom fe'li	
Nutq mobaynida sodir bo'layotgan ish harakatlari	
	 <p style="text-align: center;">Tom <i>is studying</i> right now.</p>
Present perfect tense – Tugallangan hozirgi zamon	
Ayni paytgacha sodir bo'lgan va sodir bolgan payti muhim bo'lmagan ish-harakatlari	
	 <p style="text-align: center;">Tom <i>has</i> already <i>studied</i> Chapter 1.</p>
Present perfect continuous tense – Tugallangan hozirgi zamon davom fe'li	
Ayni paytgacha sodir bo'lib kelayotgan ish-harakatlari	
	 <p style="text-align: center;">Tom <i>has been studying</i> for two hours.</p>

PAST TENSES – FE’LNING O’TGAN ZAMON SHAKLLARI

Simple past tense – Oddiy o’tgan zamon


O’tgan zamonda aniq bir paytda sodir bo’lgan ish harakatlari



Tom *studied* last night.

Past continuous tense – O’tgan zamon davom fe’li


O’tgan zamonda aniq bir paytda sodir bo’layotgan ish-harakatlari



Tom *was studying* when they came.

Past perfect tense – Tugallangan o’tgan zamon

O’tgan zamonda aniq bir paytgacha sodir bo’lgan ish-harakatlari



Tom *had* already *studied* Chapter 1 before he began studying Chapter 2.

Past perfect continuous tense – Tugallangan o’tgan zamon davom fe’li

O’tgan zamonda aniq bir paytgacha sodir bo’lib kelayotgan ish-harakatlari



Tom *had been studying* for two hours before his friends came.

FUTURE TENSES – FE'LNING KELASI ZAMON SHAKLLARI

Simple future tense – Oddiy kelasi zamon


Kelasi zamonda aniq bir paytda sodir bo'ladigan ish harakatlari



Tom *will study* tomorrow.

Future continuous tense – Kelasi zamon davom fe'li


Kelasi zamonda aniq bir paytda sodir bo'layotgan ish-harakatlari



Tom *will be studying* when they come.

Future perfect tense – Kelasi tugallangan zamon


Kelasi zamonda aniq bir paytgacha sodir bo'ladigan ish-harakatlari



Tom *will already have studied* Chapter 4 before he studies Chapter 5.

Future perfect continuous tense – Kelasi tugallangan zamon davom fe'li

Kelasi zamonda aniq bir paytgacha sodir bo'lib kelayotgan ish-harakatlari



Tom *will have been studying* for two hours by the time his roommate gets home.

6. SIMPLE PRESENT TENSE - ODDIY HOZIRGI ZAMON

Darak gap. Aniq nisbat.

[**ega** + **fe'l 1** + **2-darajali bo'laklar**]

I play football at school every Sunday.

Men har yakshanba maktabda futbol o'ynayman.

Marjona works every day.

Marjona har kuni ishlaydi.



So'roq gap. Aniq nisbat.

[**do/does** + **ega** + **fe'l 1** + **2-darajali bo'laklar**]

Do you play football?

Siz futbol o'ynaysizmi?

Does Marjona live in Urgench?

Marjona Urganchda yashaydimi?

Inkor gap. Aniq nisbat.

[**ega** + **do NOT/does NOT** + **fe'l 1** + **2-darajali bo'laklar**]

Marjona does not enjoy the parties.

Marjona bazmlarni yoqtirmaydi.

We do not work on Mondays.

Biz dushanba kunlari ishlamaymiz.

Darak gap. Majhul nisbat.

[**ega** + **am/is/are** + **fe'l3** + **2-darajali bo'laklar**]

Cars are produced in this factory.

Mashinalar ushbu zavodda ishlab chiqariladi.

SIMPLE PRESENT TENSE - ODDIY HOZIRGI ZAMON

O'zbek tilida berilgan gaplarni ingliz tilida to'g'ri tartibda qo'ying.

Men har yakshanba maktabda futbol o'ynayman.

I / every Sunday / at school / football / play

Marjona har kuni ishlaydi.

Marjona / every day / works

Siz futbol o'ynaysizmi?

you / football / play / do

Marjona Urganchda yashaydimi?

Marjona / does / in Urgench / live?

Biz dushanba kunlari ishlamaymiz.

we / on Mondays / work / do / not

Mashinalar ushbu zavodda ishlab chiqariladi.

cars / in this factory / are / produced?

7. PRESENT CONTINUOUS TENSE - HOZIRGI ZAMON DAVOM FE'LI

Darak gap. Aniq nisbat.

[**ega** + **am/is/are** + **fe'l 4** + **2-darajali bo'laklar**]

Marjona **is** **playing** **football** **at the moment**.

Marjona **hozir** **futbol** **o'ynamoqda**.

We **are** **working** **on a new project** **this month**.

Biz **bu oy** **yangi loyiha ustida** **ishlamodamiz**.

Ega

Kesim

2-darajali bo'lak

Yordamchi fe'l

So'roq gap. Aniq nisbat.

[**am/is/are** + **ega** + **fe'l 4** + **2-darajali bo'laklar**]

Is Marjona **sleeping** **now**?

Marjona **hozir** **uhlayaptimi**?

Are you **listening** **to me**?

Siz **meni** **eshityapsizmi**?

Inkor gap. Aniq nisbat.

[**ega** + **am/is/are** + **NOT** + **fe'l 4** + **2-darajali bo'laklar**]

I **am** **not** **using** **this computer** **now**.

Men **hozir** **bu komyuterdan** **foydalanmayapman**.

The machine **is** **not** **working** **properly**.

Uskuna **to'g'ri** **ishlamayapti**.

Darak gap. Majhul nisbat.

[**ega** + **am/is/are being** + **fe'l 3** + **2-darajali bo'laklar**]

The report **is being** **written** **at the moment**.

Hisobot **hozirda** **yozilmoqda**.

PRESENT CONTINUOUS TENSE - HOZIRGI ZAMON DAVOM FE'LI

O'zbek tilida berilgan gaplarni ingliz tilida to'g'ri tartibda qo'ying.

Marjona hozir futbol o'ynayapti.

is / Marjona / football / now / playing

Biz bu oy yangi loyiha ustida ishlamoqdamiz.

working / are / we / on a new project / this month

Siz meni eshityapsizmi?

listening / are / to me / you?

Uskuna to'g'ri ishlamayabti.

the machine / properly / working / not / is

Maqola hozirda yozilmoqda.

is being / the article / at the moment / written

Men hozir bu komyuterdan foydalanmayapman.

now / using / this computer / I / not / am

8. PRESENT PERFECT TENSE - TUGALLANGAN HOZIRGI ZAMON

Darak gap. Aniq nisbat.

[**ega** + **have/has** + **fe'l 3** + **2-darajali bo'laklar**]

I **have** **finished** **reading** **chapter 1**.

Men **birinchi bobni** **o'qib** **tugatdim**.

He **has** **come back** **from school**.

U **maktabdan** **qaytib** **keldi**.



So'roq gap. Aniq nisbat.

[**have/has** + **ega** + **fe'l 3** + **2-darajali bo'laklar**]

Have **you** **done** **your** **homework**?

Sen **uyga vazifangni** **bajardingmi**?

Has **Marjona** **come back** **from school**?

Marjona **maktabdan** **qaytib** **keldimi**?

Inkor gap. Aniq nisbat.

[**ega** + **have/has** **NOT** + **fe'l 3** + **2-darajali bo'laklar**]

The meeting **has** **not** **finished** **yet**.

Majlis **hali** **tugamadi**.

He **has** **not** **come** **yet**.

U **hali** **kelmadi**.

Darak gap. Majhul nisbat.

[**ega** + **have/has been** + **fe'l 3** + **2-darajali bo'laklar**]

The carrots **have been** **peeled**.

Sabzilar **archildi**.

PRESENT PERFECT TENSE - TUGALLANGAN HOZIRGI ZAMON

O'zbek tilida berilgan gaplarni ingliz tilida to'g'ri tartibda qo'ying.

Men maqolani o'qib tugatdim.

finished / I / reading / have / the article

U maktabdan qaytib keldi.

he / from school / come back / has

Marjona maktabdan qaytib keldimi?

Marjona / from school / come back / has?

Sen uyga vazifangni bajardingmi?

you / the homework / done / have?

Majlis hali tugamadi.

the meeting / yet / finished / has / not

Hisobotlar yozildi.

written / the reports / have / been

9. PRESENT PERFECT CONTINUOUS TENSE TUGALLANGAN HOZIRGI ZAMON DAVOM FE'LI

Darak gap. Aniq nisbat.

[**ega** + **have/has been** + **fe'l 4** + **2-darajali bo'laklar**]

He **has been** **working** **in the garden**. (He is tired now.)

U **bog'da** **ishlayotgan edi**. (U hozir charchagan.)

Marjona **has been** **studying** **for two hours**.

Marjona **ikki soatdan beri** **o'qiyapti**.

Ega

Kesim

2-darajali

bo'lak

Yordamchi fe'l

So'roq gap. Aniq nisbat.

[**have/has** + **ega** + **been** + **fe'l 4** + **2-darajali bo'laklar**]

Have you **been** **waiting** **for me**?

Siz **meni** **kutib turganmidingiz**?

Has **Otabek** **been** **working** **on this project** **for two years**?

Otabek **bu loyiha ustida** **ikki yildan beri** **ishlayaptimi**?

Inkor gap. Aniq nisbat.

[**ega** + **have/has NOT been** + **fe'l 4** + **2-darajali bo'laklar**]

He **has** **not been** **washing** **the dishes**. (His hands are not wet.)

U **idishlarni** **yuvmayotgan edi**. (Uning qo'llari ho'l emas.)

We **have** **not been** **cooking**. (The smell is coming from outside.)

Biz **ovqat** **pishirmayotgan edik**. (Hid tashqaridan kelayabti.)

PRESENT PERFECT CONTINUOUS TENSE

TUGALLANGAN HOZIRGI ZAMON DAVOM FE'LI

O'zbek tilida berilgan gaplarni ingliz tilida to'g'ri tartibda qo'ying.

U bog'da ishlayotgan edi.

Has / been / he / in the garden / working

Siz meni kutib turganmidingiz?

you / have / been / waiting / for me?

Otabek bu loyiha ustida ikki yildan beri ishlayaptimi?

Otabek / working / has / on this project / been / for two years?

U idishlarni yuvmayotgan edi.

washing / he / has / been / not / the dishes

Biz ovqat pishirmayotgan edik.

we / cooking / have / been / not

Men u haqida o'ylamayotgan edim.

I / about this / not / have / been / thinking

10. SIMPLE PAST TENSE - ODDIY O'TGAN ZAMON

Darak gap. Aniq nisbat.

[**ega** + **fe'l 2** + **2-darajali bo'laklar**]

Sanjar wrote a letter to his brother yesterday.

Sanjar kecha akasiga maktub yozdi.

Otabek completed his project last week.

Otabek loyihasini o'tgan hafta tugatdi.



So'roq gap. Aniq nisbat.

[**did** + **ega** + **fe'l 1** + **2-darajali bo'laklar**]

did you see a doctor yesterday?

Kecha siz shifokorga ko'rindingizmi?

Did Matluba take her daughter to a park last Sunday?

O'tgan hafta Matluba qizini hiyobonga olib bordimi?

Inkor gap. Aniq nisbat.

[**ega** + **did NOT** + **fe'l 1** + **2-darajali bo'laklar**]

We did not go to the cinema yesterday.

Biz kecha kinoga bormadik.

Sanjar did not answer the question.

Sanjar savolga javob bermadi.

Darak gap. Majhul nisbat.

[**ega** + **was/were** + **fe'l 3** + **2-darajali bo'laklar**]

The meal was cooked yesterday.

Ovqat kecha pishirilgan.

SIMPLE PAST TENSE - ODDIY O'TGAN ZAMON

O'zbek tilida berilgan gaplarni ingliz tilida to'g'ri tartibda qo'ying.

Sanjar kecha akasiga maktub yozdi.

sanjar / yesterday / to his brother / a letter / wrote

Otabek loyihasini o'tgan hafta tugatdi.

last week / Otabek / his project / completed

Kecha siz shifokorga ko'rindingizmi?

yesterday / She / did / see / a doctor?

Biz kecha kinoga bormadik.

we / yesterday / to the cinema / go / did / not

Sanjar savolga javob bermadi.

Sanjar / the question / did / not / answer

Ovqat kecha pishirilgan.

was cooked / The meal / yesterday

11. PAST CONTINUOUS TENSE - O'TGAN ZAMON DAVOM FE'LI

Darak gap. Aniq nisbat.

[**ega** + **was/were** + **fe'l 4** + **2-darajali bo'laklar**]

I **was** **working** **in the garden** **at 3 o'clock** **yesterday.**

Men **kecha soat uchda bog'da** **ishlayotgan edim.**

We **were** **playing** **football** **at half past 1** **yesterday.**

Biz **kecha soat bir yarimda** **futbol** **o'ynayotgan edik.**

Ega

Kesim

2-darajali bo'lak

Yordamchi fe'l

So'roq gap. Aniq nisbat.

[**was/were** + **ega** + **fe'l 4** + **2-darajali bo'laklar**]

Were **you** **having** **breakfast** **with Sardor** **at 8 o'clock** **yesterday?**

Siz **kecha soat sakkizda** **Sardor bilan** **nonushta qilayotgan edingizmi?**

Was **Marjona** **working** **with you** **yesterday evening?**

Marjona **kecha kechqurun** **siz bilan** **ishlayotgan edimi?**

Inkor gap. Aniq nisbat.

[**ega** + **was/were** **NOT** + **fe'l 4** + **2-darajali bo'laklar**]

Sanjar **was** **not** **studying** **in the library** **at 6 o'clock** **yesterday.**

Sanjar **kecha soat oltida** **kutubhonada** **o'qimayotgan edi.**

She **was** **not** **cooking** **in the evening.**

U **kecha kechqurun** **ovqat** **pishirmayotgan edi.**

Darak gap. Majhul nisbat.

[**ega** + **was/were** **being** + **fe'l 3** + **2-darajali bo'laklar**]

The restaurant **was** **being** **reconstructed** **last month.**

Restoran **o'tgan oy** **ta'minlanayotgan edi.**

PAST CONTINUOUS TENSE - O'TGAN ZAMON DAVOM FE'LI

O'zbek tilida berilgan gaplarni ingliz tilida to'g'ri tartibda qo'ying.

Men kecha soat uchda bog'da ishlayotgan edim.

I / yesterday / at 3 o'clock / in the garden / was / working.

Biz o'tgan hafta soat bir yarimda futbol o'ynayotgan edik.

last week / at half past one / we / football / were / playing

Marjona kecha kechqurun siz bilan ishlayotgan edimi?

yesterday evening / with you / Marjona / Was / working

Sanjar kecha soat oltida kutubhonada o'qimayotgan edi.

was / not / studying / at the library / Sanjar / at six o'clock yesterday

U kecha kechqurun ovqat pishirmayotgan edi.

she / yesterday evening / a meal / cooking / was / not

Restoran o'tgan oy ta'minlanayotgan edi.

last month / the restaurant / was / being reconstructed

12. PAST PERFECT TENSE - TUGALLANGAN O'TGAN ZAMON

Darak gap. Aniq nisbat.

[**ega** + **had** + **fe'l 3** + **2-darajali bo'laklar**]

I **had finished** my work by 5 o'clock yesterday.

Men **kecha soat beshgacha** ishimi **tugatib bo'lgandim**.

Marjona **had eaten** her breakfast by 9 o'clock yesterday.

Marjona **kecha soat 9gacha** nonushtasini **eb bo'lgandi**.

Ega

Kesim

2-darajali bo'lak

Yordamchi fe'l

So'roq gap. Aniq nisbat.

[**had** + **ega** + **fe'l 3** + **2-darajali bo'laklar**]

Had you **left** the party by 9 o'clock yesterday?

Siz **kecha soat 9gacha** bazmdan **ketib bo'lganmidingiz**?

Had Otabek **finished** his new poem by midnight yesterday?

Otabek **kecha yarim tungacha** yangi she'rini **tugatib bo'lganmidi**?

Inkor gap. Aniq nisbat.

[**ega** + **had NOT** + **fe'l 3** + **2-darajali bo'laklar**]

We **had not come back** home until 11 o'clock last weekend.

Biz **o'tgan dam olish kuni soat o'n birgacha** uyga **qaytib kelmadik**.

Matluba **had not stopped** talking until the end of the film.

Matluba **kino tamom bo'lgunga qadar** gapirishdan **to'htamadi**.

Darak gap. Majhul nisbat.

[**ega** + **had been** + **fe'l 3** + **2-darajali bo'laklar**]

The letter **had been sent** by 8 o'clock yesterday.

Maktub **kecha soat 8gacha** jo'natilgan edi.

PAST PERFECT TENSE - TUGALLANGAN O'TGAN ZAMON

O'zbek tilida berilgan gaplarni ingliz tilida to'g'ri tartibda qo'ying.

Men kecha soat beshgacha ishimi tugatib bo'lgandim.

I / by 5 o'clock yesterday / my work / had / finished

Marjona kecha soat 9gacha nonushtasini eb bo'lgandi.

had / eaten / by 9 o'clock yesterday / her breakfast / Marjona

Siz kecha soat to'qqizgacha bazmdan ketib bo'lganmidingiz?

by 5 o'clock yesterday / had / the party / left / you

Biz o'tgan dam olish kuni soat o'n birgacha uyga qaytib kelmadik.

had / not / We / home / until 11 o'clock last weekend / come back

Matluba kino tamom bo'lgunga qadar gapirishdan to'htamadi.

stopped / had / not / until the end of the film / Matluba / talking

Maktub kecha soat sakkizgacha jo'natilgan edi.

The letter / by 8 o'clock yesterday / sent / had been

13. PAST PERFECT CONTINUOUS TENSE

TUGALLANGAN O'TGAN ZAMON DAVOM FE'LI

Darak gap. Aniq nisbat.

[**ega** + **had been** + **fe'l 4** + **2-darajali bo'laklar**]

He **had been** **working** **in the garden**. (He looked tired.)

U **bog'da** **ishlayotgan edi**. (U charchagan ko'ringandi.)

Marjona **had been** **studying** **for two hours** **by 9 o'clock**.

Marjona **soat 9gacha** **ikki soatdan beri** **o'qiyotgan edi**.



So'roq gap. Aniq nisbat.

[**had** + **ega** + **been** + **fe'l 4** + **2-darajali bo'laklar**]

Had you **been** **waiting** **for me** **then**?

Siz **o'shanda** **meni** **kutib turganmidingiz**?

Had **Otabek** **been** **working** **on this project** **for two years** **by March**?

Otabek **bu loyiha ustida** **Mart oyigacha** **ikki yildan beri** **ishlab yurganmidi**?

Inkor gap. Aniq nisbat.

[**ega** + **had NOT been** + **fe'l 4** + **2-darajali bo'laklar**]

He **had** **not** **been** **washing** **the dishes**. His hands were not wet.

U **idishlarni** **yuvmayotgan edi**. Uning qo'llari ho'l emas edi.

We **had** **not** **been** **cooking**. The smell was coming from outside.

Biz **ovqat** **pishirmayotgan edik**. Hid tashqaridan kelayotgan edi.

PAST PERFECT CONTINUOUS TENSE

TUGALLANGAN O'TGAN ZAMON DAVOM FE'LI

O'zbek tilida berilgan gaplarni ingliz tilida to'g'ri tartibda qo'ying.

U bog'da ishlayotgan edi. (U o'shanda charchagan ko'ringandi.)

he / working / had been / in the garden (He looked tired then.)

Marjona soat to'qqizgacha ikki soatdan beri o'qiyotgan edi.

had been / Marjona / for two hours / studying / by 9 o'clock.

Siz o'shanda meni kutib turganmidingiz?

waiting / then / you / been / for me / had?

U idishlarni yuvmayotgan edi. Uning qo'llari ho'l emas edi.

he / been / the dishes / had / washing / not. His hands were not wet.

Biz ovqat pishirmayotgan edik. Hid tashqaridan kelayotgan edi.

cooking / had / been / not / we. The smell was coming from outside.

14. SIMPLE FUTURE TENSE - ODDIY KELASI ZAMON

Darak gap. Aniq nisbat.

[**ega** + **will** + **fe'l 1** + **2-darajali bo'laklar**]

Marjona will call you tomorrow.

Marjona sizga ertaga qo'ng'iroq qiladi.

I will study the next chapter tomorrow.

Men keying bobni ertaga o'qib chiqaman.



So'roq gap. Aniq nisbat.

[**will** + **ega** + **fe'l 1** + **2-darajali bo'laklar**]

Will Otabek come to the meeting tomorrow?

Otabek ertaga uchrashuvga keladimi?

Will you consider my suggestion?

Siz mening taklifimni e'tiborga olasizmi?

Inkor gap. Aniq nisbat.

[**ega** + **will NOT** + **fe'l 1** + **2-darajali bo'laklar**]

Matluba will not come to the English class tomorrow.

Matluba ertaga Ingliz tili darsiga kelmaydi.

We will not participate in the competition tomorrow.

Biz ertaga musobaqada ishtirok etmaybmiz.

Darak gap. Majhul nisbat.

[**ega** + **will be** + **fe'l3** + **2-darajali bo'laklar**]

The book will be published in two months.

Kitob ikki oydan so'ng nashr etiladi.

SIMPLE FUTURE TENSE - ODDIY KELASI ZAMON

O'zbek tilida berilgan gaplarni ingliz tilida to'g'ri tartibda qo'ying.

Marjona sizga ertaga qo'ng'iroq qiladi.

Marjona / you / tomorrow / will / call

Men keying bobni ertaga o'qib chiqaman.

tomorrow / study / I / will / the next chapter

Otabek ertaga uchrashuvga keladimi?

come / Otabek / will / to the meeting / tomorrow?

Siz mening taklifimni e'tiborga olasizmi?

will / consider / you / my suggestion

Matluba ertaga Ingliz tili darsiga kelmaydi.

tomorrow / Matluba / come / will / not / to the English class

Kitob ikki oydan so'ng nashr etiladi.

in two months / will be / The book / published

15. FUTURE CONTINUOUS TENSE - KELASI ZAMON DAVOM FE'LI

Darak gap. Aniq nisbat.

[**ega** + **will be** + **fe'l 4** + **2-darajali bo'laklar**]

I **will be** **working** **in the garden** **at 3 o'clock** **tomorrow**.

Men **ertaga** **soat uchda** **bog'da** **ishlayotgan bo'laman**.

We **will be** **playing** **football** **at 1 o'clock** **next Sunday**.

Biz **yakshanba** **soat birda** **futbol** **o'ynayotgan bo'lamiz**.



So'roq gap. Aniq nisbat.

[**will** + **ega** + **be** + **fe'l 4** + **2-darajali bo'laklar**]

Will **you** **be** **having** **breakfast** **with Sardor** **at 8 o'clock** **tomorrow**?

Siz **ertaga** **soat sakkizda** **Sardor bilan** **nonushta qilayotgan bo'lasizmi**?

Will **Marjona** **be** **working** **with you** **tomorrow evening**?

Marjona **ertaga kechqurun** **siz bilan** **ishlayotgan bo'ladimi**?

Inkor gap. Aniq nisbat.

[**ega** + **will NOT be** + **fe'l 4** + **2-darajali bo'laklar**]

Sanjar **will** **not** **be** **studying** **in the library** **at 6 o'clock** **tomorrow**.

Sanjar **ertaga soat oltida** **kutubhonada** **o'qimayotgan bo'ladi**.

She **will** **not** **be** **cooking** **tomorrow evening**.

U **ertaga kechqurun** **ovqat** **pishirmayotgan bo'ladi**.

FUTURE CONTINUOUS TENSE - KELASI ZAMON DAVOM FE'LI

O'zbek tilida berilgan gaplarni ingliz tilida to'g'ri tartibda qo'ying.

Men ertaga soat uchda bog'da ishlayotgan bo'laman.

at 3 o'clock / I / working / will be / in the garden // tomorrow.

Biz keyingi Yakshanba soat bir yarimda futbol o'ynayotgan bo'lamiz.

we / next Sunday / at half past 1 / football / playing / will be

Siz ertaga soat sakkizda Sardor bilan nonushta qilayotgan bo'lasizmi?

will / with Sardor / you / be / breakfast / at 8 o'clock tomorrow / having?

Marjona ertaga kechqurun siz bilan ishlayotgan bo'ladimi?

Marjona / working / will / with you / tomorrow evening / be?

Sanjar ertaga soat oltida kutubxonada o'qimayotgan bo'ladi.

in the library / will / be / studying / not / at 6 o'clock tomorrow / Sanjar

U ertaga kechqurun ovqat pishirmayotgan bo'ladi.

cooking / she // not / be / tomorrow evening / will

16. FUTURE PERFECT TENSE - TUGALLANGAN KELASI ZAMON

Darak gap. Aniq nisbat.

[**ega** + **will have** + **fe'l 3** + **2-darajali bo'laklar**]

I **will have finished** my work by 5 o'clock tomorrow.

Men **ertaga soat beshgacha** ishimi tugatib bo'laman.

Marjona **will have cooked** the meal by 9 o'clock.

Marjona **soat 9gacha** ovqatni pishirib bo'ladi.

Ega

Kesim

2-darajali bo'lak

Yordamchi fe'l

So'roq gap. Aniq nisbat.

[**will** + **ega** + **have** + **fe'l 3** + **2-darajali bo'laklar**]

Will you **have left** the party by 9 o'clock tomorrow?

Siz **ertaga soat to'qqizgacha** bazmdan ketgan bo'lasizmi?

Will Otabek **have finished** his new poem by midnight tomorrow?

Otabek **ertaga yarim tungacha** yangi she'rini tugatib bo'ladimi?

Inkor gap. Aniq nisbat.

[**ega** + **will NOT have** + **fe'l 3** + **2-darajali bo'laklar**]

We **will not have come back** home until 11 o'clock next weekend.

Biz **keyingi dam olish kuni soat o'n birgacha** uyga qaytib kelmaymiz.

Matluba **will not have finished** her essay by midnight today.

Matluba **bugun yarim tungacha** inshosini tugatmagan bo'ladi.

Darak gap. Majhul nisbat.

[**ega** + **will have been** + **fe'l 3** + **2-darajali bo'laklar**]

All the grapes **will have been harvested** by the end of September.

Uzumlar **senyabr oyining ohirigacha** terilib olinadi.

FUTURE PERFECT TENSE - TUGALLANGAN KELASI ZAMON

O'zbek tilida berilgan gaplarni ingliz tilida to'g'ri tartibda qo'ying.

Men ertaga soat beshgacha ishimi tugatib bo'laman.

by 5 o'clock tomorrow / I / finished / my work / will have.

Marjona ertaga soat 9gacha nonushtasini eb bo'ladi.

by 9 o'clock tomorrow / Marjona / eaten / her breakfast / will have

Siz ertaga soat to'qqizgacha bazmdan ketgan bo'lasizmi?

by 9 o'clock tomorrow / will / have / left / the party / you?

Biz keyingi dam olish kuni soat o'n birgacha uyga qaytib kelmaymiz.

until 11 o'clock next weekend / we / not / have / come back / home / will

Matluba bugun yarim tungacha inshosini tugatmagan bo'ladi.

finished / by midnight today / Matluba / not / have / will / her essay

Uzumlar sentyabr oyining ohirigacha terilib olinadi.

All the grapes / by the end of September / will have been / harvested

17. FUTURE PERFECT CONTINUOUS TENSE TUGALLANGAN KELASI ZAMON DAVOM FE'LI

Darak gap. Aniq nisbat.

[**ega** + **will have been** + **fe'l 4** + **2-darajali bo'laklar**]

He **will have been** **working** **in the garden** **until 6 o'clock**.

U **soat oltigacha bog'da** **ishlayotgan bo'ladi**.

Marjona **will have been** **studying** **for an hour** **by 9**.

Marjona **soat to'qqizgacha** **bir soat** **o'qiyotgan bo'ladi**.

Ega

Kesim

2-darajali bo'lak

Yordamchi fe'l

So'roq gap. Aniq nisbat.

[**will** + **ega** + **have been** + **fe'l 4** + **2-darajali bo'laklar**]

Will **you** **have been** **waiting** **for me** **by 5 o'clock tomorrow**?

Siz **ertaga soat to'qqizgacha** **meni** **kutib turgan bo'lasizmi**?

Will **Otabek** **have been** **working** **on this project** **for two years** **by March**?

Otabek **bu loyiha ustida** **Mart oyigacha** **ikki yildan beri** **ishlayotgan bo'ladimi**?

Inkor gap. Aniq nisbat.

[**ega** + **will NOT have been** + **fe'l 4** + **2-darajali bo'laklar**]

I **will not have been** **taking** **that class** **until the end of the term**.

Men **bu fanni** **chorak ohirigacha** **o'qimayotgan bo'laman**.

Marjona **will not have been** **cleaning** **the house** **by 6 o'clock tonight**.

Marjona **bugun kechqurun soat 6gacha** **uy** **yig'ishtirayotgan bo'lmaydi**.

FUTURE PERFECT CONTINUOUS TENSE

TUGALLANGAN KELASI ZAMON DAVOM FE'LI

O'zbek tilida berilgan gaplarni ingliz tilida to'g'ri tartibda qo'ying.

U ertaga soat oltigacha bog'da ishlayotgan bo'ladi.

in the garden / he // working / will have been / until 6 o'clock tomorrow

Marjona soat to'qqizgacha ikki soatdan beri o'qiyotgan bo'ladi.

will have been / Marjona / by 9 o'clock / studying / for two hours

Siz ertaga soat to'qqizgacha meni kutib turgan bo'lasizmi?

waiting / will / you / have / for me / been / by 5 o'clock tomorrow

Otabek bu loyiha ustida Mart oyigacha ikki yildan beri ishlayotgan bo'ladimi?

working / Will / Otabek / by March / on this project / have been / for two years /

Men bu fanni chorak ohirigacha o'qimayotgan bo'laman.

not / I / will / taking / until the end of the term / have been / that class

Men chorak ohirigacha bu kitobni o'qimayotgan bo'laman.

I / this book / will / not / reading / have been / by the end of this semester

18. GLOSSARY OF VERB TENSES

Umid works every day. Simple present tense

Umid is working now. Present continuous tense

Umid has worked so far. Present perfect tense

Umid has been working lately. Present perfect continuous tense

Umid worked yesterday. Simple past tense

Umid was working at noon yesterday. Past continuous tense

Umid had worked by noon yesterday. Past perfect tense

Umid had been working by noon yesterday. Past perfect continuous tense

Umid will work tomorrow. Simple future tense

Umid will be working at noon tomorrow. Future continuous tense

Umid will have worked by noon tomorrow. Future perfect tense

Umid will have been working by noon tomorrow. Future perfect continuous tense

Umid har kuni ishlaydi. Oddiy hozirgi zamon

Umid hozir ishlamoqda. Hozirgi zamon davom fe'li

Umid hozirgi paytgacha ishladi. Tugallangan hozirgi zamon

Umid ohirgi paytlarda ishlamoqda. Tugallangan hozirgi zamon davom fe'li

Umid kecha ishladi. Oddiy o'tgan zamon

Umid kecha tush paytida ishlayotgan edi. O'tgan zamon davom fe'li

Umid kecha tush paytigacha ishladi. Tugallangan o'tgan zamon

Umid kecha tush paytigacha ishlayotgan edi. Tugallangan o'tgan zamon davom fe'li

Umid ertaga ishlaydi. Oddiy kelasi zamon

Umid ertaga tush paytida ishlayotgan bo'ladi. Kelasi zamon davom fe'li

Umid ertaga tush paytigacha ishlagan bo'ladi. Tugallangan kelasi zamon

Umid ertaga tush paytigacha ishlayotgan bo'ladi. Tugallangan kelasi zamon davom fe'li

